



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING  
BUYRUG'I**

2023 - yil «28» aprel

111-son

Toshkent shahri

Vazirlik apparati uchun tovarlar,  
ishlar, xizmatlar xaridi hamda  
inventarizatsiyadan o'tkazish va  
hisobdan chiqarish bo'yicha komissiya  
tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi (keyingi o'rinnarda-Qonun) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3953-son Qarori va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 19-oktabrdagi "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi EG/17-19-2075-son (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 2-noyabrda 833-son bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi BHMS 19-son*) buyrug'iiga asosan

**B U Y U R A M A N:**

1. Quyidagilar: Vazirlik apparati uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha komissiya (keyingi o'rinnarda-xarid komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

vazirlik apparati balansida bo'lgan asosiy vositalar va tovar-moddiy qimmatliklarni inventarizatsiyadan o'tkazish va hisobdan chiqarish bo'yicha komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasi (B.Oxunov)ga belgilangan tartibda o'tkaziladigan tanloving shaffofligini ta'minlash, tanlovda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyati va takliflarini har tomonlama o'rganib, bajarilayotgan ishlar va taqdim etilayotgan tovarlarning sifatini ta'minlovchi pudratchi va tovar yetkazib beruvchi tashkilotlarning tanlab olinishini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

**3. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (Y.Pardayev)ga:**

Qonunda belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil qilish;

davlat xaridlarini rejalashtirish, davlat xaridlari to'g'risidagi axborotni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda maxsus axborot portaliga joylashtirish;

tovar-moddiy qimmatliklarni inventarizatsiya qilish jarayonida amaliy ko'mak berish, shuningdek, tovar-moddiy qimmatliklarning kirim qilinishi, topshirilishi va hisobdan chiqarilishini to'g'ri rasmiylashtirishda belgilangan qoidalarga rioya etilishi hamda vazirlik balansidan o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqarilishini ta'minlasin.

**4. Ishlar boshqarmasi (A.Tulanov)ga:**

davlat xaridlarni amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

tanlovida g'olib deb topilgan ishtirokchilar bilan shartnomalar tuzish, shuningdek ularning ijro etilishini ta'minlash;

vazirlik faoliyati uchun xarid qilingan va foydalanishda bo'lgan tovar-moddiy qimmatliklarni belgilangan muddatlarda inventarizatsiyadan o'tkazish shuningdek, xizmat muddatini o'tagan tovar-moddiy qimmatliklarni mazkur buyruqning 2-ilovasida qayd etilgan komissiya a'zolari ishtirokida o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqarish va rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

5. Xarid turlari, olinayotgan tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiyatiga qarab Xarid komissiyasi tarkibiga tegishli bo'linmalardan mutaxassislar jalb qilinishi inobatga olinsin.

6. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirining 2022-yil 9-noyabrdagi 367-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qtgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departament boshlig'i B.Oxunovning zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

I.Abduraxmonov



NUSXA  
ASLIGA TO'G'RI

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining

20<sup>13</sup>-yil “03” 04

11-sonli buyrug'iga 1-ilova

## Vazirlik apparati uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha komissiya tarkibi

T/r	F.I.Sh.	Ish joyi va egallab turgan lavozimi
1	Oxunov Bunyodjon Ashurmatovich	Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti boshlig'i, komissiya raisi
2	Xoliqov Abduvali Jonizoqovich	Ta'lim muassasalari tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti boshlig'i, komissiya raisi o'rinnbosari
3	Tulanov Akmal Abrorovich	Ishlar boshqaruvchisi, komissiya a'zosi
4	Sultanov Xurshid Baxodirovich	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig'i, komissiya a'zosi
5	Maxsudov Bobir Elamonovich	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi bosh mutaxassisni, komissiya a'zosi
6	Ashurov Faxriddin Xushvaqtovich	Ichki audit boshqarmasi boshlig'i, komissiya a'zosi
7	Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li	Yuridik bo'limi bosh mutaxassisni, komissiya a'zosi
8	Ibragimov Bekzod Xasanovich	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh mutaxassisni – axborot portaliga tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha ma'lumotlarni joylashtirish uchun <b>mas'ul</b> , ( <i>Ovoz berish huquqisiz</i> ) <b>kotib</b>

*Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.*

*Loyihalar doirasida o'tkaziladigan tanlovlarda loyiha mas'ullari ishtiroki ta'minlanadi.*

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining

2013-yil "28" 04  
118 -sonli buyrug'iga 2-ilova

**Vazirlik apparati balansida bo'lgan asosiy vositalar va tovar-moddiy qimmatliklarni inventarizatsiyadan o'tkazish va hisobdan chiqarish bo'yicha komissiya tarkibi**

T/r	F.I.Sh.	Ish joyi va egallab turgan lavozimi
1	Turdikulova Shaxloxon Utkurovna	Vazir o'rinnbosari, komissiya raisi
2	Alijonov Utkirjon Maxamadaliyevich	Professional ta'limdi o'quv-me'yoriy va metodik muvofiqlashtirish boshqarmasi, komissiya a'zosi
3	Yakubov Azizjon Tojiboyevich	Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi, komissiya a'zosi
4	Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	Axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi, komissiya a'zosi
5	Abdullayev Shoxrux Ochilovich	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi, komissiya a'zosi
6	Misirov Akbarali Pardaboyevich	Ichki audit boshqarmasi, komissiya a'zosi
7	Lutfullayev Sherzod Shuxratillayevich	Xo'jalik mudiri, komissiya a'zosi, dalolatnomalar va boshqa tegishli hujjatlarni shakllantirish uchun mas'ul.

*Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.*